

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

I.O.Raxmonova	
Ingliz tilidagi "Food"/"Oziq-ovqat" konseptining milliy xususiyatlari.....	1101
Sh.G.Akbarova	
A comparative analysis of the original and the translations of the essay "The stranger" (L'etranger) by Alber Camus.....	1107
Sh.G.Akbarova	
Alber Kamyu asarlari tarjimasiga mazmun va mohiyat ta'siri	1111
Sh.G.Akbarova	
О некоторых тайнах Французских артиклей	1115
D.A.Ganieva, G.S.Mirzayeva	
Realialarning madaniy konnotativ xususiyatlari.....	1118
G.S.Mirzayeva	
Lingvokulturemalar tarjimasida translitratsiya usuli.....	1122
N.K.Abbasova	
Formation of foreign-language communicative competences in language learners using english proverbs and sayings.....	1125
A.A.Qayumov, A.B.Kosimova	
Jahon adabiyotida drabllarning o'rganilishi	1130
D.I.Mirzayeva	
O'xshatish uslubiy kategoriyasining semantik-stilistik xususiyatlari.....	1134
D.A.G'aniyeva, S.Yaxyoyeva	
Abbreviatsiya so'z yasashning samarador usuli sifatida	1137
Sh.B.Dushatova	
Unveiling implicit meaning: exploring the subtext of euphemisms	1140
Sh.B.Dushatova, X.J.Xoliqova	
The psychology of euphemisms: why do we use them?.....	1144
Z.M.Xalilova	
Kognitiv tilshunoslik zamonaviy tilshunoslikning yangi yo'nalishi sifatida	1148
A.S.Toshmatov	
Beyond grammar: building confidence and clarity in student writing (higher education)	1153
N.X.Qurbonov	
The positive effects of video games in teaching english to beginner-level learners	1160
D.E.Normatova	
Sharq ilk uyg'onish davri va uning ilmiy-falsafiy mohiyati.....	1166
D.R.Axmadaliyeva	
Talabalarning ingliz tilida nutqiy kompetensiyasini o'yin texnologiyalari asosida rivojlantirish metodikasi.....	1171
N.Sh.Abdullayeva	
Talabalarning xorijiy tilda kasbiy muloqotini o'rgatish jarayonida dlii texnologiyalarining integratsiyasi.....	1177
S.A.Aliyeva	
Geortonimlar bilan bog'liq perifrazalar tadqiqi.....	1182
S.A.Aliyeva	
Turli tizimli tillarda geortonimik indikatorlarning leksik-semantik xususiyatlari	1185
M.A.Axundjanova	
A cooperative small group methodology in teaching english for esp students	1189
R.M.Shukurov, F.B.Abduraximova	
Turli tizimli tillarda so'z yasashining umumiy va farqli jihatlari	1193
F.B.Abduraximova	
O'zbek tilida mubolag'a va uning darajalanishi	1203
Sh.F.Latipov	
Unveiling the significance of linguistic lacuna in foreign language teaching.....	1208
L.T.Galimullina	
Semantic peculiarities of english phraseological synonyms with the component of precious stones and metals	1210



UO'K: 811.112.2'373+513.015.7

LINGVOKULTUREMALAR TARJIMASIDA TRANSLITRATSIYA USULI

МЕТОД ТРАНСЛИТЕРАЦИИ ПРИ ПЕРЕВОДЕ ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫХ СЛОВ

TRANSLITERATION METHOD IN TRANSLATING LINGUOCULTURAL WORDS

Mirzayeva Gulbaxor Soxibovna

Farg'ona davlat universiteti, Ingliz tili kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Bizga ma'lumki, tarjima - matn yoki nutqni bir tildan ikkinchi tilga o'tkazish, shu bilan birga uning ma'nosi, ohangi, badiiy matnini va maqsadini imkon qadar yaqinroq saqlash hisoblanadi. Mazkur jarayon nafaqat so'zlarni bir tildan boshqa tilga o'tkazishni, balki asl matnga xos bo'lgan nuanslarni, madaniy murojaatlarni, idiomatik iboralarni va noziklikni ham o'z ichiga oladi.

Аннотация

Как известно, перевод – это перевод текста или речи с одного языка на другой с максимально близким сохранением его смысла, тональности, художественного текста и цели. Этот процесс включает в себя не только перевод слов с одного языка на другой, но и нюансы, культурные отсылки, идиоматические выражения и тонкости, присущие оригинальному тексту.

Abstract

We know that translation is the translation of a text or speech from one language to another while preserving its meaning, tone, literary text and purpose as closely as possible. This process involves not only translating words from one language to another, but also the nuances, cultural references, idiomatic expressions and subtleties inherent in the original text.

Kalit so'zlar: transliteratsiya, lingvokulturema, madaniy birlik, badiiy matn, tarjima, milliy-madaniy xususiyatlar.

Ключевые слова: транслитерация, лингвокультурема, культурное единство, художественный текст, перевод, национально-культурные особенности.

Key words: transliteration, linguocultureme, cultural unity, literary text, translation, national and cultural characteristics.

KIRISH

Tarjima va transliteratsiya o'rtasidagi tanlov badiiy matnning mahalliyashtirishga bo'lgan talab yoki milliy madaniy muhitni saqlab qolish sababli, tarjimaning moslashtirishda hal qiluvchi eng asosiy qaror hisoblanadi. Garchi transliteratsiya tarjima jarayonida turli maqsadlar va natijalarga ega bo'lishni nazarda tutsa ham. Muqobili mavjud emas so'zlarni tarjima qilishning bir necha usullari mavjud: so'zlarning transliteratsiyasi, ya'ni, so'zlarning talaffuzini topish hamda saqlab qolish. Mazkur tarjima usulidan foydalanib, kishilarning ismlari, joy nomlari, gazeta va jurnallar nomi, ya'ni davriy nashrlarning nomlari, korxonalar, tashkilot, firma nomi, kema va mehmonxonalar nomlarining keng miqyosda transliteratsiyasi usulidan foydalanilgan. Transliteratsiya esa matnning bir yozuvdan boshqasiga o'zgartirish jarayoni bo'lib, lingvokulturemalar transliteratsiya qilinishi tizim belgilaridan foydalangan holda bir yozuv tizimining tovushlari yoki belgilarini ifodalashga qaratilgan. Transliteratsiya so'zlar va iboralarning madaniy shaklini ayniqsa o'ziga xos milliy-madaniy ahamiyatga ega bo'lgan nomlar yoki lingvokulturemalar bilan ishlashda ularni saqlab qolishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Transliteratsiya jarayoni neytral bo'lib ko'rinsa-da, boshqa harflarda aynan o'sha so'zning yozilishi hisoblanib, har qanday transliteratsiyasi o'zi bilan potentsial chet so'zlarini kirib kelishini ta'minlaydi. Shunday qilib, mahalliyashtirish atamasini yaratuvchisi L.Venuti bu hodisani vaqt, jamiyat, me'yor va kuch kabi tushunchalar bilan bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Mazkur transliteratsiya jarayonida ma'lum milliy va madaniy tushunchalarning yo'qolishini istisno qilib bo'lmaydi. Bu

TILSHUNOSLIK

holatda muammo shundaki, aniq tarjimada semantik muqobil leksikaning mavjud emasligi tilning madaniy jihatdan belgilangan so'zlari va frazeologik birliklarini to'ldirish uchun maqsadli transliteratsiyadan foydalaniladi. Bunday holda, dastlab tarjimon oldida mos keluvchi muqobilini topish vazifasi turibdi hamda u turli tarjima transformatsiyalari, shu jumladan tavsiflovchi tarjima, funksional analog, kalkalash, transliteratsiyaga murojaat qiladi. Ko'plab tarjima usullardan farqli ravishda fransuz tilshunoslari J.P. Vinet va J.Darbelne o'zlarining tarjimaga oid tasniflarini taklif qilishdi. Unga ko'ra tilning darajali modeliga emas, balki tarjima xususiyatlaridan kelib chiqqan holda transkripsiya va transliteratsiyalar, kalkalash, so'zma-so'z tarjima kabi bilvosita tarjimadan foydalanish zarurligini ta'kidlashdi. Bir tomondan asl asarning ajoyib milliy xususiyatlarini transkripsiya va transliteratsiyadan foydalangan holda saqlab qolish mumkin. Boshqa tomondan, tarjimonlar asl muallifning echimlarini ifodalash uchun maxsus va ijodiy moslashtirgan holda tarjima uchun muqobili bo'lgan leksekani tarjima tilining me'yorlaridan kelib chiqqan holda yondashish muhim ekanligini e'tirof etishadi. "Xorijiy matn qachon o'quvchi uchun xorijiy elementlarni saqlab qoladi, qachonki tarjima strategiyasida xorijiyashtirish ya'ni transliteratsiya jaryoni yuzaga kelganda, shu bilan birga chet tili elementlari va uning o'quvchi madaniyatiga moslashtirilgan holda ifodalansa, bu albatta tarjima integratsiyadir".[1.59] Binobarin, tilning bunday ifoda vositalarini tahlil qilganda leksik birlikni maqsadli tilga o'tkazish usulini tanlash obyektiv omillar lingvistik xususiyatlariga ko'ra an'ana, grammatika, transkripsiya va transliteratsiya qoidalari bilangina emas, balki, tarjimonning tajribasi, uning aqliy salohiyati, qobiliyati variantlarni tanlash, jarayonni belgilovchi tashqi omillar tarjimada individual uslubni shakllantiradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Transliteratsiya asosida quyidagi misollarni ko'rib o'tamiz: *paranjining uzun etaklari katta bir tugundek uning qo'llig'ini to'lg'azardi...*("Kecha va kunduz"4 bet) Tarjimada paraji madaniy realiyasi aynan shunday saqlanib qolgan. *The long hems of the paraji enclosed her girlish arms like a well-kept secret. ("Night and day"46 p)* Bizga ma'lumki, Markaziy osiyolik musulmon ayollar uydan tashqarida kiyadigan kiyim bo'lib, faqatgina yuz qismida maxsus to'rdan tashqarini ko'rish imkoni bo'lgan. Ma'lumotlarga ko'ra Rossiya mustamlakasi boshlanishi bilan shahar sharoitida paranjidan foydalanish yanada yoyilgan. *Ertalab bitta-yarimtani bozorga tushiraylik, shularni sotib, ul-bul olib chiqsin. ("Kecha va kunduz"30 bet) Tomorrow we'll send down to bazaar, let him sell what he can, and bring back what he gets.("Night and day"46 p)* Asar tarjimoni asarni 2020 yil tarjima qilishiga qaramasdan o'sha davr bilan bog'liq bo'lgan, hamda O'rta Osiyo xalqlarining o'ziga xos madaniy birliklarini ifodalovchi realiya bo'lib, ingliz tilida gapiruvchi mamlakatlarga ham taransliteratsiya shaklida "bazaar" bilan madaniy ma'no to'liq anglashiladi.

Bozor - bu to'qimachilik, ziravorlar, hunarmandchilik, zargarlik buyumlari va oziq-ovqat kabi turli xil tovarlar sotiladigan gavjum va jonli muloqotda yangiliklarni o'zaro almashadigan joy. Ko'pincha do'konlar yoki rastalar bilan qoplangan tor ko'chalar yoki yo'llar bilan ajralib turadi, bu labirintga o'xshash muhit yaratadi. "Bozor" lingvokulturemasi savdo, tijorat va ijtimoiy o'zaro aloqalar bilan bog'liq madaniy ma'nolarni o'z ichiga oladi. Bozorlar nafaqat iqtisodiy ayirboshlash joylari, balki odamlar yig'iladigan, savdolashib, jonli suhbatlar o'tkazadigan ijtimoiy faoliyat markazlar hisoblanadi. Bozorlar o'zining jo'shqin muhiti, rang-barang ko'rinishi hamda sotuvchilar va mijozlar o'rtasidagi jonli muloqotlari bilan mashhur.

Ingliz tilida gaplashuvchi mamlakatlarga "bozor" so'zini fors lug'atshunos va sharqshunos olimi Jon Richardson kiritgan. Lekin undan oldin ham "bozor" atamasi ingliz tiliga Yaqin Sharq, Janubiy Osiyo va Shimoliy Afrikada ushbu bozorlarni uchratgan savdogarlar, tadqiqotchilar va sayohatchilar bilan o'zaro aloqada bo'lganligi sababli muomalada mavjud bo'lgan. Richardson 1777-yilda o'zining "Fors, arab va inglizcha lug'at" [2.20] ini nashr etdi, unda "bozor" atamasi boshqa ko'plab fors va arabcha so'zlar qatoriga kirishiga qaramasdan, bu so'zning ta'riflari, tarjimalari va tushuntirishlari taqdim etilib, ingliz tilida so'zlashuvchilarga kengroq til va madaniy bilimlardan foydalanish imkonini berdi.

Tandir oldida kuyib-pishib, shabnam donalariday yirik-yirik terlarga botib, Zebi bilan birga patir yopayotgan Saltiga bu maslahat juda yomon qattiq tekkan ... (25 bet) Bu gapda *tandir* hamda *patir* aynan milliy madaniy xususiyatlarni anglatuvchi realiya bo'lib, ularning tarjima shakliga ahamiyat qaratamiz:

The conversation between her elders hurt Saltanat, who was standing in front of the tandoor oven, baking flatbread with Zebi, perspiring large drops of dew-like sweat. (64 page)
Gapda asosan tandir realiyasi qanday bo'lsa shu holatda, patir so'ziga esa tasviriy ifodaga ko'ra tarjima qilingan. Tandır realiyasi O'rta Osiyo hududlarida keng tarqalgan madaniy ashyo sifatida muhim sanaladi. U odatda non va patir, somsa kabi turli xil yeguliklarni, shuningdek, tandir go'shti va tovug'i kabi maxsus go'shtlarni tayyorlash uchun ishlatiladi. Pech ko'mir yoki yog'och bilan isitiladi va ovqatni to'g'ridan-to'g'ri pechning ichki devorlariga qo'yib, yuqori haroratgacha qizdiriladi. Lingvokulturema sifatida "tandır" an'anaviy pishirish usullari, umumiy ovqatlanish va mintaqaviy oshxona bilan bog'liq madaniy ma'nolarni o'z ichiga oladi. Bu nonning oshxonadagi ahamiyatini va tandirda pishirish jarayonining o'ziga xos ta'mi va tuzilishini anglatadi. Oziq-ovqat yoki pishirish kontekstida tandir haqida eslatib o'tish ushbu an'anaviy usul yordamida tayyorlangan xushbo'y, tutunli va issiqina taomlarning tasvirini milliy-madaniy jihatdan namoyon etadi.

"Tandoor" realiyasi ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarga ham aynan asl talaffuzini yo'qotmagan holda kirib kelgan bo'lib, ular ham bu so'zni O'rta Osiyo mamlakatlari bilan bog'laydi. U quyidagicha izohlanadi: "The roots of the tandoor can be traced back over hundred years to the ancient civilization, one of the oldest known civilizations. The standard heating element of a tandoor is an internal charcoal or wood fire, which cooks food with direct heat and smoke. Tandoors can be fully above ground, or partially buried below ground, often reaching over a meter in height/depth." [3.2]

XULOSA

Hulosa qilib aytadigan bo'lsak, transliteratsiya madaniy so'zlarni ya'ni lingvokulturemalar va realiyalarni tarjima jarayonida saqlab qolinib, tili o'rganilayotgan madaniyat, adabiyot va milliat hayoti haqida ma'lumot beruvchi eng samarali usul sifatida talqin etiladi. Har bir ifodalanayotgan lingvokulturema tarjima matnlarida pragmatik muvofiqlikni saqlashi va ularning o'zga xalqlar uchun tushunarli bo'lishi, ya'ni pragmatik xususiyatlarni aks ettirishi tarjima qoidasi darajasidagi shartlardan ekanligi e'tirof etilgan. Jahon adabiyotiga o'zbek badiiy matnlarini, adabiyotlarini tarjima qilinishi o'zbek tilini dunyo hamjamiyati uchun ochishning vositasi sifatida qaralib, undan unumli foydalanish o'zbek tili imkoniyatlarini yanada oshirishdan iboratdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Venuti L. Strategies of translation/ L. Venuti // Routledge encyclopedia of translation studies/ ed. by Baker, M. London: Taylor and Francis Books Ltd., 2001. P. 240-244.
2. America encyclopedia
3. Oxford Dictionary. Tashkent. 2005. 734 pages. (272 page)
4. <https://en.wikipedia.org/wiki/Tandoor> (murojaat vaqti 19.05.24)
5. Abdulhamid Cho'ipon "Kecha va kunduz" «Шарк» нашриёт матбаа концернининг тахририяти. Тошкент – 2000. 30 bet
6. Christopher Fort. "Night and day" Boston, 2020.
7. Mirzayeva, G. S. (2023). Linguoculturemes As A Key That Reveals The Literary Text. According To Jane Austen's Novel "Pride And Prejudice". *International Journal of Formal Education*, 2(11), 6-10.
8. Mirzayeva, G. S. (2023). Cultural-Bounding Words In Translation. *Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education (2994-9521)*, 1(5), 29-31.